BOSHLANG‘ICH SINFLARDA HIKOYA JANRI MATNLARINI O‘QITISHGA O‘RGATISH METODIKASI

Xurramova Umida Azamatovna

Qo‘qon davlat universiteti

e-mail:xurramovaumida1626@.gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tezisda boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligi darslarida hikoya janri matnlarini o‘qitishga o‘rgatishning metodik asoslari tadqiq etilgan. Hikoya janrining boshlang‘ich ta’limdagi o‘rni, uning o‘quvchilar nutqini va ijodiy tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. “Hikoya-tahlil”, “Rol o‘ynash va sahnalashtirish”, “Fazilat daraxti”, “Ijobiy va salbiy fazilatlarni ajratish”, “Quvnoq alifbo”, “Little star” kabi interfaol metodlarning dars jarayonida qo‘llanilish mexanizmi va samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, insoniy fazilatlarni ulug‘laydigan hikoyalar asosida o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish yo‘llari ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga o‘qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etishda amaliy yordam berishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *hikoya janri, o‘qish savodxonligi, boshlang‘ich ta’lim, interfaol metodlar, matn tahlili, insoniy fazilatlar, “Fazilat daraxti”, “Hikoya-tahlil”, ijodiy tafakkur, nutq rivojlantirish, o‘qitish metodikasi.*

Аннотация. *В данном тезисе исследуются методические основы обучения чтению текстов жанра рассказа на уроках читательской грамотности в начальных классах. Раскрывается роль жанра рассказа в начальном образовании, его значение для развития речи и творческого мышления учащихся. Анализируется механизм применения и эффективность интерактивных методов — “Анализ рассказа”, “Ролевая игра и*

инсценировка”, “Дерево добродетелей”, “Разграничение положительных и отрицательных качеств”, “Весёлый алфавит” и “Little star” — в ходе урока. Показаны пути формирования нравственно-этических качеств у учащихся на основе рассказов, прославляющих человеческие достоинства. Результаты исследования могут оказать практическую помощь учителям начальных классов в эффективной организации уроков читательской грамотности.

Ключевые слова: *жанр рассказа, читательская грамотность, начальное образование, интерактивные методы, анализ текста, человеческие добродетели, “Дерево добродетелей”, “Анализ рассказа”, творческое мышление, развитие речи, методика обучения.*

Abstract. *This thesis investigates the methodological foundations of teaching story genre texts in reading literacy lessons in primary school. The role of the story genre in primary education and its significance for developing students’ speech and creative thinking are highlighted. The mechanism and effectiveness of interactive methods — “Story Analysis”, “Role Play and Dramatization”, “Virtue Tree”, “Distinguishing Positive and Negative Qualities”, “Happy Alphabet” and “Little star” — used during lessons are analysed. Ways of forming moral and ethical qualities in students through stories that glorify human virtues are demonstrated. The research findings can provide practical assistance to primary school teachers in effectively organising reading literacy lessons.*

Keywords: *story genre, reading literacy, primary education, interactive methods, text analysis, human virtues, “Virtue Tree”, “Story Analysis”, creative thinking, speech development, teaching methodology.*

Kirish. Bugungi kunda o‘qish savodxonligi ta’lim tizimidagi ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ta’lim sohasidagi farmoyishlarida “Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi” degan muhim fikr ilgari surilgan. Ushbu yo‘nalishda boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida badiiy matn, xususan hikoya janri bilan ishlash metodikasi

alohida e’tibor talab etadi. Hikoya janri boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun eng qulay va ta’sirchan badiiy tur hisoblanadi. Undagi hayotiy voqealar, yorqin qahramonlar va axloqiy xulosa o‘quvchida ham bilish qiziqishini, ham ma’naviy tuyg‘ularni uyg‘otadi. Shu bois o‘qish savodxonligi darslarida hikoya matnlarini o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish dolzarb pedagogik vazifa sifatida ko‘ndalang turmoqda. Mazkur tezisda boshlang‘ich sinflarda hikoya janri matnlarini o‘qitishga o‘rgatishning metodik asoslari — hikoyaning janr xususiyatlari, matn ustida ishlash bosqichlari, interfaol metodlar va insoniy fazilatlarni shakllantirish yo‘llari — keng tahlil qilinadi.

Asosiy qism. 1. Hikoya janrining boshlang‘ich ta’limdagi o‘rni va didaktik ahamiyati. Hikoya — kichik hajmdagi badiiy asar bo‘lib, unda inson hayotidagi ma’lum bir voqea yoki muhim jihatlar umumlashtirilgan holda tasvirlanadi. Hikoya ko‘pincha hayotiy epizodga asoslanib, ertaklardan ko‘ra haqiqiylikka yaqin bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun hikoya mazmuni tushunarli va yoshiga mos janr hisoblanadi: kichik yoshdagi bolalar qahramonlarning xarakteri, tashqi ko‘rinishi va voqealar bilan qiziqishadi. Hikoyaning ta’limiy ahamiyati shundan iboratki, u o‘quvchilarning nafaqat tafakkurini, balki ma’naviy-estetik dunyoqarashini, axloqiy pozitsiyasini va nutq madaniyatini shakllantiradi. Boshlang‘ich sinf darsliklarida insoniy fazilatlarni — halollik, vafodorlik, mehribonlik, qarorlilik, adolatlilik, sabrlilik, mehnatsevarlik, ochiqlik va samimiyatni — ulug‘lash haqida ko‘plab hikoyalar keltirilgan. Bu fazilatlar o‘quvchilarda umr davomida saqlanib qoladigan shaxsiy sifatlar sifatida shakllansa, ular shaxsning o‘ziga, boshqalarga va jamiyatga munosabatini ijobiy yo‘nalishda belgilab beradi.

2. Hikoya matnini o‘rgatishning metodik bosqichlari. Boshlang‘ich sinflarda izohli o‘qish darslari davomida hikoya mazmuni ochiladi, lug‘at so‘zlari bilan ishlanadi va o‘quvchilar o‘qilgan matnni qayta hikoyalaydilar. Hikoya mazmunini tushunish uchun savollar yordamida tahlil qilinadi. Bu savollar hikoya mazmunini o‘rganish, dalil va mulohazalarni taqqoslash hamda voqea va xarakterlar o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlashga xizmat qiladi. Metodik jihatdan hikoya matnini o‘zlashtirish

uchun quyidagi bosqichlarda ish olib boriladi: matn yuzasidan o‘qituvchi savollariga javob berish; hikoya asosidagi topshiriqlarni bajarish; o‘quvchilarning o‘zlari savollar tuzishi; hikoyaga mos rasmlar chizish; matnni qismlarga bo‘lish; har qismga sarlavha qo‘yish; reja tuzish; reja asosida hikoyani qayta aytish (to‘liq, qisqartirilgan yoki ijodiy); reja asosida bayon yozish. Hikoya o‘qib bo‘lingach, o‘quvchilarga fikrlarini bildirish uchun vaqt berish lozim. Dastlab beriladigan savollar hikoya ularga yoqqan-yoqmaganligini, qaysi qahramon ta’sir qilganini aniqlashga qaratiladi. Keyinchalik syujet, qahramonlarning xarakteri va asarning asosiy g‘oyasi haqida savollar beriladi. Badiiy asar tahlilida faqat syujetni tushuntirish emas, balki qahramonlarni tavsiflash, asar qurilishi va tilini o‘rganish ham muhimdir.

3. Interfaol metodlarning dars jarayonidagi qo‘llanilishi. Boshlang‘ich sinflarda hikoya janrini o‘qitishda bir qator samarali interfaol metodlardan foydalaniladi. “Hikoya-tahlil” metodi. O‘qituvchi o‘quvchilarga hikoya yoki masalni o‘qib beradi, so‘ngra o‘quvchilar uni tahlil qilib, tushunganlarini daftarlariga yozadilar. Masalan, Abdulla Avloniyning "Bulbul bilan pashsha" masalida pashsha va ari dialogi orqali mehnat va yalqovlik mavzusi ochiladi; masalning xulosasi — mehnat qilish orqali rohatga erishiladi, yalqovlik esa kamsitilishga olib keladi. O‘quvchilar bu g‘oyani mustaqil tahlil qilib, hayotiy misollar bilan boyitadilar. “Ijobiy va salbiy fazilatlarni ajratish” metodi. Doskaning bir tomoniga ijobiy, ikkinchi tomoniga salbiy fazilatlar yoziladi. O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linib, bir guruh salbiy, ikkinchi guruh ijobiy fazilatlarni doskaga yozadi. Bu metod o‘quvchilarning qahramonlar xarakterini tizimli tahlil qilish, ularga baho berish va o‘z axloqiy pozitsiyasini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. “Fazilat daraxti” metodi. Har bir o‘quvchi bitta list olib, unga daraxt chizadi — “fazilat daraxti”. So‘ngra o‘quvchilar hikoyada keltirilgan insoniy fazilatlardan qaysi biri daraxtning turli qismlariga (ildiz, shox, meva) mos kelishini belgilaydilar. Bu metod mavhum axloqiy tushunchalarni ko‘rgazmali, yaratuvchan tarzda o‘zlashtirishga yordam beradi va o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshiradi. “Quvnoq alifbo” metodi. Dars boshlanishida o‘quvchilarga alifbodagi harflardan bittadan

stiker tarqatiladi. Hikoya ustida ishlashda har bir o‘quvchi o‘ziga to‘g‘ri kelgan harfdan boshlanadigan, matnda uchragan so‘zlardan kamida ikkitasini yozadi. Dars so‘ngida o‘qituvchi harflarni aytganda, o‘quvchilar mos so‘zlarni aytib beradilar. Bu metod orqali lug‘at boyligi kengayadi, matn tahlili orqali ijodiy fikrlash rivojlanadi va o‘tilgan mavzular yaxshiroq mustahkamlanadi. “Little star” metodi. Doskaga yulduz rasmi ilib chiqiladi yoki har bir guruhga tayyor list varaqalari beriladi. O‘quvchilar o‘qigan hikoya yuzasidan beshta turli fikr bayon etadilar: 1) hikoya davomida his qilgan kechinmalar; 2) hikoyada yaxshi deb topilgan fikrlar; 3) hikoyada yomon deb topilgan jihatlar; 4) hikoyada yana qanday epizodlar bo‘lishi kerakligi haqida fikrlar; 5) umumiy xulosa. Ushbu metod o‘quvchilarni matnni ko‘p qirrali va tanqidiy tarzda tahlil qilishga o‘rgatadi. “Rol o‘ynash va sahnalashtirish” metodi. O‘quvchilar hikoya mazmunidagi vaziyatlarni rolli sahnalashtirish orqali namoyon etadilar. Boshqa usullardan farqli ravishda, bunda ishtirokchilar baholanmaydi, balki birgalikda muammoni hal qilishga harakat qiladilar. Bu metod o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini, empatiasini va matn mazmunini chuqur his etishini rivojlantiradi. O‘yin nihoyasida kuzatuvchi o‘quvchilar fikr bildirib, umumiy xulosa chiqariladi.

4. Insoniy fazilatlarni hikoya orqali shakllantirish. Boshlang‘ich sinf darsliklarida insoniy fazilatlarni ulug‘lash haqida ko‘plab hikoyalar keltirilgan. O‘qituvchi darslik va pedagogik metodlar yordamida halollik, mehribonlik, adolat va hamjihatlik kabi fazilatlarni o‘rgatib, ularni hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini singdiradi. Masalan, 2-sinf o‘qish savodxonligi darsligidagi “Kitob — beminnat do‘st” mavzusida Abdulla Avloniy haqida so‘z yuritiladi. Darsning maqsadi — mavzuning nomi ma’nosini ochib berish, buyuk bobokalon haqida ma’lumot berish, masaladagi qiyin so‘zlarni izohlash va kerakli xulosa chiqarishni o‘rgatish.

O‘qituvchi o‘quvchilarga savol beradi: “Bolalar, maktabda o‘qish va kitob o‘qish nega juda muhim?” Har bir o‘quvchining fikri tinglanadi. Bu jarayon ularning nutqini rivojlantiradi, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi. O‘qituvchi umumlashtiradi: “Abdulla Avloniy ham aynan bilim olish va boshqalarni

o‘rgatishga katta hissa qo‘shgan shaxs bo‘lgan. U nafaqat yozuvchi, balki bolalar uchun yangi maktablar tashkil qilgan, ularga bilim berib, ta’lim olishga yordam bergan”. Shu tarzda o‘quvchilar zarur xulosaga mustaqil kela oladilar.

Insoniy fazilatlarni darslik orqali singdirishning bir nechta ahamiyati bor: shaxsiy o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish; jamoaviy ishlarda muvaffaqiyatga erishishga yordam berish; barkamol avlodni tarbiyalash. Metodik yondashuvlarda ko‘rgazmali vositalar, hikoya va ertaklar, amaliy mashg‘ulotlar, interfaol metodlar, rol o‘ynash mashqlari va jamoaviy loyihalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Xulosa. 1. Hikoya janri boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish, ijodiy tafakkurini shakllantirish va ma’naviy-axloqiy tarbiya berish uchun eng samarali badiiy tur hisoblanadi. Uning hayotiylikka yaqinligi, qahramonlarining yorqinligi va axloqiy xulosa bilan yakunlanishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kuchli ta’limiy va tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi.

2. Hikoya matnini o‘rgatishda izchil metodik bosqichlar — tayyorlash, o‘qish, lug‘at ustida ishlash, mazmunni tahlil qilish, qayta hikoyalash va reja tuzish — o‘quvchilarning matnni chuqur o‘zlashtirishini ta’minlaydi. O‘quvchilarga ham savol tuzish imkonini berish ularning qiziqishini oshirib, matnni yaxshiroq anglab yetishga yordam beradi.

3. “Hikoya-tahlil”, “Fazilat daraxti”, “Ijobiy va salbiy fazilatlarni ajratish”, “Quvnoq alifbo”, “Little star” va “Rol o‘ynash” kabi interfaol metodlar hikoya darslarini mazmunli va qiziqarli qiladi. Ushbu metodlar o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytiradi, kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi va matnni ko‘p qirrali tahlil qilish malakasini shakllantiradi.

4. Insoniy fazilatlarni ulug‘laydigan hikoyalar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda halollik, mehribonlik, adolat va mehnatsevarlik kabi axloqiy sifatlarni mustahkamlaydi. Bunda o‘qituvchining rag‘batlantiruvchi, yo‘naltiruvchi roli va ijobiy psixologik muhit hal qiluvchi ahamiyatga ega.

5. Tajriba-sinov natijalari interfaol metodlardan tizimli foydalanish o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi ko‘rsatkichlarini sezilarli oshirishini tasdiqladi. Jamoaviy, guruhiy, juftlikda va individual ish shakllarining uyg‘un qo‘llanilishi har bir o‘quvchiga o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — T.: O‘zbekiston, 2021. — 464 b.

2. Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldasheva Sh. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. — T.: O‘qituvchi, 2015. — 296 b.

3. Husanboyeva Q.P. Boshlang‘ich sinflarda nutq o‘stirish. — T.: Fan va texnologiya, 2017. — 184 b.

4. Toirova M.E. O‘qish savodxonligi: 4-sinf uchun darslik. — T.: Novda Edutainment, 2023. — 45–62 b.

5. Ibrohimova M.N. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi fanining didaktik imkoniyatlari. Science and Innovation, 2(4), 2023. — 391–394 b.

6. Mambaraimova N. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirish orqali og‘zaki nutqini rivojlantirish. Web of Teachers, 2(3), 2024. — 106–111 b.

7. Asqarova D. Til va adabiyot darslarida o‘qish strategiyalari. — T.: Ilmiy nashr, 2021. — 75–93 b.

8. Halimova Z. O‘qish madaniyati: nazariya va amaliyot. — T.: Ta’lim, 2022. — 28–44 b.

9. Nigmatova S. Adabiy matn tahlili va o‘qitish metodlari. — T.: Ilmiy nashr, 2023. — 78–96 b.

10. Mirzaeva F. O‘quvchilarda o‘qish strategiyalarini shakllantirish. — Namangan: IlmTa’lim, 2020. — 33–50 b.